

27-dars

Darsning mavzusi: So'roq gaplarni mustahkamlash 73-75-mashqlar

Darsning ta'limiy maqsadi: so'roq gaplar haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgarlar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini (nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish, darak gap haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Kun tartibiga rioya qilish, sog'lom turmush tarziga amal qilishga o'rgatish; mustaqil o'qib-o'rganish va bilimni muntazam oshirib borishga o'rgatish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilgan holda gaplar tuzish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Dars turi: mustahkamlovchi dars

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, ko'rgazmalilik, "Blits so'rov" ta'limiy o'yini

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Odobli bola elga manzur.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun guruhlar o'rtasida savol-javob o'tkaziladi.

1. O'zbek tiliga qachon davlat tili maqomi berildi?
2. So'roq gap deb nimaga aytiladi?
3. Unlilar nechta?
4. Gaplar maqsadga ko'ra necha turga bo'linadi?
5. Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar qaysilar?
6. Darak gap deb nimaga aytiladi?
7. Til haqida maqol ayting.
8. Tutuq belgisi bor bo'lgan so'zlar ayting.

9. Undov gap deb nimaga aytiladi?

Uyga berilgan 72-mashq tekshiriladi. Tinish belgilarini to'g'ri qo'yib, husnixat bilan ko'chirilgan matn egalari rag'batlantiriladi.


III. Mustahkamlash.

Darslikda berilgan 73-mashqdagi savollarga o'quvchilardan javob olinadi.

1. Kun tartibi deganda nimani tushunasiz? Sizning kun tartibingiz qanday?
2. Kun tartibi kishi salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Tishlarimiz uchun nima foydali va nima zararli deb hisoblaysiz?
4. To'g'ri ovqatlanish deganda nimani tushunasiz?
5. Sport bilan shug'ullanishning inson uchun qanday foydali jihatlarini bilasiz?

O'quvchilar javobi tinglanib, xulosa qilinadi. Har bir inson o'zining kun tartibiga rioya qilishi kerak. Ertalab barvaqt uyg'onib, badantarbiya bilan shug'ullanish, yuz-qo'llarni, tishlarni tozalash, nonushta qilish lozim. Kundalik vazifalarni bajarib bo'lgandan so'ng vaqtda dam olish, tanani chiniqtirish kerak. Tungi uyquning me'yorida bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

74-mashq og'zaki bajariladi. Berilgan so'roq so'zlar yordamida so'roq gaplar tuziladi. Quyidagi jadvaldan foydalanadi.



75-mashqda berilgan she'rda buyruq gaplar berilgan. Buyruq gaplar so'roq gaplarga aylantirib yozilishi talab etiladi.

Masalan: *Kattalarga salom ber.* – *Kattalarga salom berasanmi?*

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

76-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOP ETISH UCHUN EMAS!